

ELEKTRON HUKUMAT TEKNOLOGIYALARI VA XIZMATLARI

Jabborov Abdulla Akbar o‘g‘li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali talabasi

Elektron pochta manzili:abdullajabborov3@gmail.com

Islomov Bekzod Ilg‘or o‘g‘li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali talabasi

Elektron pochta manzili:bekzodislomov54@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada elektron hukumat texnologiyalari va xizmatlarining shakllanishi, rivojlanishi va joriy etilish jarayonlari keng yoritilgan. Xususan, O‘zbekiston tajribasi asosida elektron davlat xizmatlarining fuqarolar hayotidagi roli, qulayliklari, xavfsizlik choralarini kuchaytirish, byurokratik to‘sislarni kamaytirish va xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalar, xususan Estoniya va Janubiy Koreya misolida innovatsion yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Maqolada mavjud platformalar — Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, MyGov ilovasi va Mobile-ID tizimi orqali taqdim etilayotgan xizmatlar soni, foydalanish ko‘rsatkichlari hamda istiqboldagi raqamli transformatsiya yo‘nalishlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Elektron hukumat, raqamli texnologiyalar, davlat xizmatlari, Yagona portal, MyGov, Mobile-ID, blokcheyn, kiberxavfsizlik, sun’iy intellekt, kompozit xizmatlar, ochiqlik va shaffoflik, fuqarolik xizmatlari, raqamli davlat boshqaruvi.

Аннотация: В данной статье подробно освещены процессы формирования, развития и внедрения технологий и услуг электронного правительства. В частности, на основе опыта Узбекистана проанализированы роль электронных государственных услуг в жизни граждан, их удобство, меры по усилению безопасности, снижение бюрократических барьеров и значение в повышении эффективности обслуживания. Также рассмотрены передовые зарубежные практики, особенно инновационные подходы на примере Эстонии и Южной Кореи. В статье анализируются количество предоставляемых услуг, показатели использования и перспективные направления цифровой трансформации через существующие платформы, такие как Единый интерактивный портал государственных услуг, приложение MyGov и система Mobile-ID.

Ключевые слова: электронное правительство, цифровые технологии, государственные услуги, Единый портал, MyGov, Mobile-ID, блокчейн, кибербезопасность, искусственный интеллект, комплексные услуги, открытость и прозрачность, гражданские услуги, цифровое государственное управление.

Abstract: This article provides a comprehensive overview of the formation, development, and implementation processes of e-government technologies and services. In particular, it analyzes the role of electronic public services in citizens' lives, their convenience, the strengthening of security measures, the reduction of

bureaucratic barriers, and the improvement of service efficiency, based on the experience of Uzbekistan. The article also examines advanced international practices, especially innovative approaches in countries like Estonia and South Korea. Furthermore, the paper analyzes the number of services, usage statistics, and future directions of digital transformation through existing platforms such as the Unified Interactive Public Services Portal, the MyGov application, and the Mobile-ID system.

Keywords: E-government, digital technologies, public services, Unified Portal, MyGov, Mobile-ID, blockchain, cybersecurity, artificial intelligence, composite services, transparency and openness, civic services, digital public administration.

Kirish

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi samarali va tezkor davlat boshqaruvi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron hukumat (e-government) texnologiyalari davlat xizmatlaridan foydalanishni osonlashtiradi va fuqarolarga masofadan turib foydalanishga imkon beradi. Ushbu texnologiyalar davlat xizmatlari sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi, hamda jarayonlarni byurokratik to'siqlardan xalos qiladi. Raqamli transformatsiya orqali davlat boshqaruvining qulayligini oshirishda elektron hukumat texnologiyalari muhim rol o'ynaydi.

Elektron hukumatning rivojlanishi 1990-yillarda boshlangan. Dastlab davlat boshqaruvining alohida bo'limgani raqamlashtirildi va Internet texnologiyalari orqali xizmatlar ko'rsatish imkoniyati yaratildi. 2000-yillarda AQSh va Evropa mamlakatlarida birinchi yirik elektron hukumat loyihalari amalga oshirildi. 2001-yilda Estoniya dunyodagi birinchi to'liq raqamli davlat boshqaruvi tizimini joriy etish orqali elektron hukumatning rivojlanishiga yo'l ochdi. "E-Estonia" loyihasi butun dunyo mamlakatlari uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda va bugungi kunda elektron hukumat sohasida innovatsiyalarning keng joriy etilishini rag'batlantirmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda elektron hukumat tizimlari ham faol rivojlanmoqda. 2013-yilda O'zbekiston elektron hukumatni joriy etishning birinchi bosqichini boshladi, 2015-yilda esa yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini ishga tushirildi. Ushbu portal orqali fuqarolar turli xil xizmatlardan onlayn foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishdi, bu esa hujjatlar hajmini sezilarli darajada kamaytirdi. Davlat xizmatlaridan elektron foydalanish imkoniyatini beruvchi ushbu portal bugungi kunda yiliga o'rtacha 25 millionga yaqin xizmatni taqdim etadi. 2022-yilga kelib O'zbekistonda 200 dan ortiq davlat xizmatlari raqamli shaklda taqdim etilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Elektron hukumat sohasiga oid adabiyotlar tahlili ushbu yo'naliishning nazariy asoslari, texnologik yondashuvlari hamda amaliy tatbiqlari bo'yicha chuqur bilim va tajribalarni o'z ichiga oladi. Juhon miqyosida elektron hukumatning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini chuqur o'rganish, turli mamlakatlar tajribalarini solishtirish imkonini beradi.

Birinchi navbatda, **BMT tomonidan har ikki yilda chop etiladigan "UN E-Government Survey"** hisobotlari elektron hukumat darajasini baholash va dunyo davlatlarining bu sohadagi reytingini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Ushbu hisobotda elektron ishtirok, davlat xizmatlarining raqamli shakli, ochiqlik va

infratuzilma rivoji bo'yicha tahlillar keltiriladi. O'zbekiston ushbu reytingda oxirgi yillarda ijobjiy ko'rsatkichlarga ega bo'lmoqda, bu esa mamlakatda raqamli transformatsiya borayotganidan dalolat beradi. **Estoniya tajribasi** bo'yicha e-estonia.com platformasida keltirilgan materiallar elektron hukumatning mukammal modeli sifatida taqdim etilgan. Ular fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishda blokcheyn texnologiyalaridan samarali foydalanayotganini, shuningdek, barcha xizmatlarni yagona tizimda to'plaganligini ko'rsatadi. Bu O'zbekiston uchun ham o'rnak bo'lishi mumkin bo'lgan modeldir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, ayniqsa, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida qabul qilingan hujjatlar, elektron hukumatni joriy etish va rivojlantirishning huquqiy asoslarini tashkil etadi. Ushbu hujjatlar asosida **Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) faoliyati, Mobile-ID, MyGov ilovalari** va boshqa zamonaviy tizimlar yo'lga qo'yildi.

OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan tayyorlangan "Digital Government Review of Estonia" (2020) hisobotida esa davlat xizmatlarining fuqarolar ehtiyojlariga moslashtirilganligi, sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari va xizmatlar sifati tahlil qilingan. Bu hisobot raqamli davlat boshqaruvining konseptual yondashuvini chuqur tushunish uchun zarur manba hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda elektron hukumat texnologiyalarining rivojlanishi, samaradorligi va O'zbekistondagi joriy etilishi o'rganildi. Tadqiqot quyidagi usullarga asoslandi:

- **Tahlil usuli** – elektron hukumatga oid qonun hujjatlari va statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.

- **Taqqoslash usuli** – Estoniya, Janubiy Koreya kabi ilg'or davlatlar tajribasi O'zbekiston bilan solishtirildi.

- **Empirik usul** – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va boshqa tizimlar faoliyati asosida real ko'rsatkichlar o'rganildi.

- **Sistemali yondashuv** – elektron hukumat infratuzilmasi davlat boshqaruvi bilan uzviy bog'liqda tahlil qilindi.

- **Nazariy yondashuv** – raqamli hukumat nazariyalari va ilmiy qarashlar asosida tadqiqot yo'naltirildi.

Tahlil va natijalar

Elektron hukumat texnologiyalari davlat xizmatlarini tez va xavfsiz qilishga yordam beradi. O'zbekistonda "MyGov" mobil ilovasi orqali fuqarolar davlat xizmatlaridan foydalanish, vaqt ni tejash va qog'ozbozlikdan qochish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, Estoniya kabi davlatlar blokcheyn texnologiyasini elektron hukumat tizimiga birlashtirib, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlaydilar. Masalan, Estoniya hukumati 2017 yilda elektron hukumat xizmatlariga blokcheyn texnologiyasini kiritish orqali shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni kuchaytirdi. Kiberxavfsizlik masalalari elektron hukumatning ajralmas qismiga aylandi va davlat ma'lumotlarining xavfsizligi va o'zgarmasligi asosiy talablardan biridir. Bu davlat xizmatlariga ishonchni oshiradi va ulardan keng foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Elektron hukumat fuqarolarga ko'plab afzalliklarni taqdim etadi. Elektron xizmatlar yordamida davlat xizmatlarini ko'rsatish tezligi oshadi va hujjatlar sezilarli darajada kamayadi. Bu fuqarolarga vaqt ni tejashga imkon beradi va davlat organlariga murojaat qilish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi. Bundan tashqari, elektron hukumat tizimi orqali ochiqlik va shaffoflik ta'minlanadi. Masalan, Janubiy Koreya davlat qarorlarini haqiqiy vaqt da kuzatib borish imkonini beruvchi OPEN platformasini ishga tushirdi. Ushbu platforma fuqarolarga davlat qarorlari va xizmatlari to'g'risida to'liq ma'lumot olish imkonini beradi va davlat boshqaruviga ishonchni oshiradi.

Elektron hukumatning keljakdagi istiqbollari yanada kengroq imkoniyatlarni ochib beradi. 2030-yilga kelib, ko'plab mamlakatlar elektron hukumat tizimlarini sun'iy intellekt, blokcheyn va IoT kabi yangi texnologiyalar bilan kengaytirishi kutilmoqda. Sun'iy intellekt yordamida davlat xizmatlarini shaxsiylashtirish va tezlashtirishga erishiladi. Masalan, sun'iy intellekt bilan ishlaydigan chatbotlar davlat xizmatlariga murojaat qilishda yordam beradi, tezkor javoblar beradi va hujjatlarni topshirish tartibini osonlashtiradi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YaIDX) orqali 347 turdag'i xizmat onlayn shaklda ko'rsatilishi yo'lga qo'yilgan (o'tgan yil shu davriga nisbatan o'sish 135 foiz).

Hisobot davrida 47 ta xizmat joriy qilingan bo'lsa, yil yakuniga qadar Yagona portaldagi xizmatlar soni 370 taga yetkaziladi. Joriy qilinayotgan barcha elektron davlat xizmatlarining to'lov jarayonlari Yagona billing tizimiga ulanadi.

Bugungi kunda mazkur portalda ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar soni 3 milliondan ortgan. Shuningdek, foydalanuvchilar tomonidan portal xizmatlaridan yil boshidan jami 9.5 mln. marotaba foydalangan (o'tgan yil shu davriga nisbatan o'sish 160 foiz).

Shu bilan birga, Yagona portalning mobil ilovasida 155 ta (o'sish 375 foiz) elektron davlat xizmatlari aholi va yuridik shaxslarga taqdim etilmoqda.

Aholi va tadbirkorlarga davlat xizmatlarini ko'rsatishda qulayliklar yaratish maqsadida, hududlarda 1037 ta pochta aloqasi ob'ektlarida YaIDX platformasidan foydalangan holda 60 turdag'i davlat xizmatlarini taqdim etish yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, Davlat xizmatlaridan foydalanish uchun shaxsni identifikatsiyalashning mavjud tizim va vositalariga qo'shimcha ravishda jismoniy shaxsni identifikatsiyalashning Mobile-ID tizimi joriy etildi.

Mobile-ID tizimi yordamida Yagona portaldagi 61 turdag'i elektron davlat xizmatlaridan foydalanish jarayonida majburiy tartibda Elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash amaliyotidan voz kechiladi. Mobile-ID tizimida qisqa davrda 30 mingdan ortiq foydalanuvchilar ro'yxatdan o'tdi.

2022 yil 1 apreldan Toshkent shahrida, 2022 yil 1 iyuldan esa butun respublika hududida tibbiyot muassasalari tomonidan o'lim haqida tibbiy guvohnoma berish tartibi bekor qilinib, faqat elektron tizim orqali o'lim haqida tibbiy ma'lumotnomasi shakllantirish tartibi joriy etildi hamda o'lim holati fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qayd qilinganligi haqida tibbiyot muassasalari tomonidan berilgan QR-kod (matrik shtrixli kod) tasviri tushirilgan ma'lumotnomasi o'lim haqidagi gerblari guvohnomaga tenglashtiriladi hamda davlat organlari va tashkilotlar tomonidan qabul qilishni rad etish qat'ian taqiqlandi.

Bugungi kunda 19 turdag'i davlat xizmatlari kompleks birlashtirilishi natijasida 6 turdag'i kompozit shakldagi xizmatlarni ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Masalan, tug'ilganlikni qayd etish bilan bog'liq kompleks davlat xizmatidan foydalanish natijasida kompozit shaklda bir vaqtning o'zida bitta so'rov orqali tug'ilganlikni qayd etish, oilaviy poliklinikaga hisobga qo'yish, bir martalik nafaqa pulini olish, ota-onaning doimiy ro'yxatda turgan manzili bo'yicha ro'yxatga qo'yish, bolani bog'chaga navbatga qo'yish xizmatlaridan foydalanish mumkin.

Ijtimoiy himoya yagona reyestriga kirish uchun ariza berish, pensiya haqida ma'lumot, nafaqa tayinlash uchun ariza berish va boshqa xizmatlar ishga tushirildi. Ushbu xizmatlardan 2022 yil davomida 200 ming marotabadan ko'p foydalanilgan bo'lib, foydalanuvchilarning ortiqcha harajatlari va vaqt iqtisod qilingan.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida Nafaqa tayinlash uchun ariza berish xizmati orqali pensiya yoshiga yetgan biroq yetarli ish stajiga ega bo'lмаган шахслар, yoshidan qat'i nazar ish stajiga ega bo'lмаган I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar va nogironligi bo'lgan bolaga qaragan onalarga yoshga doir nafaqalarni olish uchun ariza berish imkoniyati yaratildi. Bugungi kunga qadar mazkur xizmat orqali 164 mingdan ortiq nafaqalar tayinlangan.

Bugungi kunda chora-tadbirlar dasturiga kiritilgan 22 ta xizmat Yagona portalda joriy etildi hamda xizmatlar soni 340 tadan ortiqni tashkil etmoqda.

Tijorat banklari hamda to'lov tizimlari operatorlariga axborot xavfsizligi talablariga rioya etgan holda, o'zlarining mobil ilovalari orqali jismoniy va yuridik shaxslarga Yagona portaldagi elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishga ruxsat etilishi natijasida AT "Aloqa bank"ning "Zoomrad" mobil ilovasida avtotransport vositasi hamda ko'chmas mulk bilan bog'liq ma'lumotlar jismoniy shaxslarga taqdim etilmoqda.

O'z navbatida, ATB "Qishloq qurilish bank" tomonidan ishlab chiqilgan "QVANT" mobil ilovasi orqali 10 turdag'i elektron xizmatlarni joriy etish bo'yicha ishlar davom etmoqda.

Xulosa va takliflar

Elektron hukumat texnologiyalari zamonaviy davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda muhim vositaga aylandi. Bu tizim orqali davlat xizmatlari tezkor, shaffof va fuqarolar uchun qulay tarzda taqdim etilmoqda. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda bu borada sezilarli yutuqlarga erishildi. Jumladan, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, "MyGov" mobil ilovasi, Mobile-ID tizimi kabi platformalar fuqarolarga davlat xizmatlaridan masofadan va byurokratik to'siqlarsiz foydalanish imkonini bermoqda.

Mavjud ijobiy natijalarga qaramay, tizimni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagilarni taklif qilish mumkin: birinchidan, raqamli xizmatlar qamrovini kengaytirish va ularni mamlakatning barcha hududlarida joriy etish lozim; ikkinchidan, axborot xavfsizligini ta'minlash uchun blokcheyn, sun'iy intellekt kabi ilg'or texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish zarur; uchinchidan, aholining raqamli savodxonligini oshirish maqsadida o'quv kurslari, videoqo'llanmalar va treninglar tashkil etilishi kerak. Shuningdek, elektron xizmatlardan foydalanishni yengillashtirish uchun mobil ilovalarning interfeyslarini soddalashtirish, xizmat sifati monitoringi uchun foydalanuvchi bahosi va reyting tizimini yo'lga qo'yish ham muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, elektron hukumat texnologiyalari O‘zbekistonning raqamli transformatsiyasida markaziy o‘rinni egallaydi. Ularning izchil va puxta rivojlanishi davlat boshqaruvini fuqarolar uchun yanada ochiq va samarali tizimga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari. www.lex.uz
2. Elektron hukumat markazi rasmiy sayti – www.egov.uz
3. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı – www.my.gov.uz
4. Estoniya elektron hukumat loyihasi “E-Estonia” – <https://e-estonia.com>
5. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi – www.mitc.uz
6. OECD – "Digital Government Review of Estonia", OECD Publishing, Paris, 2020
7. UN E-Government Survey 2022 – United Nations Department of Economic and Social Affairs
8. Janubiy Koreya elektron hukumat platformasi: OPEN – www.open.go.kr